

**Xurshid SOQIYEV,**

*O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD*

*E-mail: khurshidik@gmail.com*

*Tel: (93) 588-38-08*

*O'zDJTU, f.f.d. U.Kushayev taqrizi asosida*

## MODERN TENDENCIES OF PERSONAL FORMATION IN THE INFORMATION SOCIETY

Annotation

The article explores that the concept of "alienation" has entered the social and human sciences in modern society as a problem associated with the individual, and, as noted in the study, alienation manifests itself as a large-scale phenomenon covering all spheres of human life. Opinions on the constant growth of quantitative and qualitative indicators of the situation are analyzed.

**Key words:** Social networks, personality, education, culture, identity, deconstruction, virtual space, globalization, information.

## СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В статье исследовано, понятие «отчуждение» вошло в социальные и гуманитарные науки в современном обществе как проблема, связанная с личностью, и, как отмечается в исследовании, отчуждение проявляется как масштабное явление, охватывающее все сферы человеческой жизни. Проанализированы мнения о постоянном росте количественных и качественных показателей положения.

**Ключевые слова:** Социальные сети, личность, образование, культура, идентичность, деконструкция, виртуальное пространство, глобализация, информация.

## AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SHAXS SHAKLLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-gumanitar fanlarga «beganalashuv» tushunchasi shaxs bilan bog'liq muammo sifatida kirib kelganligi o'rganilib, tadqiqotlar qayd etganidek, beganalashuv keng ko'lamli, insoniyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan hodisa sifatida namoyon bo'ldishi, yod tizimlarda shaxs pozitsiyasini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari doimiy ravishda o'sib borishini haqidagi mulohazalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy tarmoqlar, shaxs, tarbiya, madaniyat, identiklik, dekonstruksiya, virtual makon, globallashuv, axborot.

**Kirish.** Global ko'lamdagi axborotlashuv sohasining rivojlanishi ko'p jihatdan madaniyatlarning yaqinlashuviga, shaxsning ijodiy qobiliyati rivojlanishiga, intellektual salohiyati oshishiga xizmat qimoqda.

Bu axborotlashuv jarayonning ijobiy jihatlari, lekin ushbu jarayonda ayrim salbiy holatlar yuzaga kelmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, shaxsning virtual makonga moslashishi mobaynida shaxsda ijtimoiy munosabatlardan uzoqlashuvi, beganalashuv hissining paydo qilishi aniqlangan. Bu raqamli beganalashuvning birinchi bosqichi sifatida empirik sub'ektning dekonstruksiya jarayonidir.

XX asrda ijtimoiy-gumanitar fanlarga «beganalashuv» tushunchasi shaxs bilan bog'liq muammo sifatida kirib keldi. Frankfurt maktabi vakillari beganalashuv keng ko'lamli, insoniyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan hodisa sifatida namoyon bo'ldi. Xususan, G.Markuzening fikricha, inson ma'naviy dunyosining yemirilishi, o'zini foydasiz, keraksiz, chuqur yolg'izlik hissi bilan yashaydigan, natijada, «bir o'lchovli odam», «beganalashgan» maqomidagi shaxslarni yuzaga keltiradi[1].

Shunday qilib, tizim uchun inson, hatto, empirik sub'ekt sifatida mavjud bo'lmay qoladi, natijada, u shunchaki, biometrik ma'lumotlar bazasida raqamli kodga aylanadi. M.Openkov ta'kidlaganidek, «Birinchi bosqichda shaxs o'zining biologik xususiyatlarini saqlashga bo'lgan intilishlarini to'xtatadi, ikkinchi bosqichda esa, u qanchalik xohlamasin, ortga qaytishning imkoni bo'lmaydi»[2]. Bu shaxs dialektik rivojlanishining intihosi va beganalashuvning boshlang'ich chegarasini anglatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Aksel Xonnet o'z tadqiqotida beganalashuvni sub'ektlararo sub'ektiv va ob'ektiv kabi shakllarga ajratadi[3]. Bu tendensiyalarning barchasi zamonaviy dunyoda beganalashuv muammolarini har tomonlama ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish zarurligini ko'rsatdi. Demak, hozirgi davr beganalashuv harakatlarining asl natijalarini shaxs darajasida ko'rib chiqish kerakligini taqozo etmoqda. Xorijiy tadqiqotchilar bugungi kunda yod tizimlarda shaxs pozitsiyasini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari doimiy ravishda o'sib borishini turli ijtimoiy kasalliklar bilan bevosita bog'laydilar. Bularga turli ruhiy va asab kasalliklari, jinoyatchilik, alkogolizm, giyohvandlikni misol qilish mumkin. Raqamli beganalashuv hodisasini o'rganishning zaruriyati shundaki, nemis sosiologi, kibernetik olim R. F. Geyer xulosalariga ko'ra, har bir davr o'zining beganalashuv standartlarini hosil qiladi, raqamli beganalashuv insonni haqiqiy, real hayotdan uzoqlashtiradi[4].

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, oddiy savol tug'iladi: «Raqamli dunyo»ning sub'ekti kim? B.Kurbatovning fikricha, «Bu global axborot-kommunikasiya ta'sirining aktorlari yoki agentlari». Bunda «agent»ning anonimligi, «nomsiz» oddiy «nik»lardan iboratligi bejiz emas. G'arb tadqiqotchilaridan Djon Deveyning fikricha, insonlar o'rtasida «jon»li muloqot va munosabatlar, bir jihatdan, «trans aloqalar» orqali o'z realligini modellashtiradi[5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** «Raqamli dunyo» yangi ijtimoiy kodlarni yaratdi, u manipulyasion strategiyalar orqali inson hayotining zaruriy orientirlarni deformatsiya qilishga yo'naltirilgan. Demak, inson qadriyatları «raqamli dunyo» prinsiplariga bog'liqligini anglagan holda, «raqamli beganalashuv» fenomeni mantiqiy shakllar orqali antropologik transformasiyalarni amalga oshirmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Internetning keng ko‘lamli rivojlanishi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlardan tortib maishiy munosabatlarga qadar bo‘lgan ta’sirchan kuchi odamlarning o‘ziga tobe qilib qo‘ydi. Mutaxassislar hisob-kitoblariga ko‘ra, dunyo miqyosida 70 % o‘smirlar kompyuterning “Game of Ware” o‘yinlariga tobeklikni boshidan kechirishi, undagi zo‘ravonlik, shafqatsizlik psixologiyasi yoshlar ma’naviyatida salbiy izlarni qoldirib, virtual va real voqelikda chalkashayotgani kuzatilmoqda[6].

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, talaba yoshlarning oilasi, ota-onalaridan alohida yashashi, ta’lim tizimi vakillari nazoratining pastligi, talabaning do‘stlar bilan aloqasining susayishi, ijtimoiy-iqtisodiy murakkabliklar ijtimoiy bo‘shliqni kompyuter orqali to‘ldirish, o‘ziga yaqin “suhbatdosh” topishidan “onlayn makon” girdobiga tortiladi. Dunyo xalqlari boshidan kechirgan internet tobeligiga yurtimiz aholisi axborotlashuvning o‘shishiga mos bog‘lanib bormoqda. Aholining milliy-diniy fe’l-atvoridan kelib chiqqan holda vaziyatni internet tobeligidan ko‘ra aholi, ayniqsa, yoshlarning «ijtimoiy tarmoqlarga qaramligi», deb hisoblaymiz.

Ijtimoiy media sohasining mafkuraviy faoliyat bilan bog‘liq holda K. Fuks “jalb qiluvchi – bog‘lovchi - mafkuraviy targ‘ibot” tushunchalarini taklif qiladi (engaging/sonnesting/sharing ideology). Dunyodagi ulkan Facebook, YouTube, Twitter, Instagram mediaplatformalar ushbu tushunchalarni o‘zlarining asosiy shiorlari qilib olgan[7].

Bugungi kunda Finlyandiya davlatida innovasion tizimning samarali modeli yaratilgan bo‘lib, bu “davlat, korporativ biznes, universitetlar va xakerlar” deb nomlangan. Ushbu yo‘nalishning ustuvor jihatlardan biri innovasion texnologiyalarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan raqamli iqtisodiyot, uning negizida mobil aloqalarni rivojlantirish klasteri, yuqori sifatli oliy ta’lim madaniy identiklikni shakllantirish hisoblanadi”[8].

Charlz Teylor o‘zining “Autentlik axloqi” asarida qayd etishicha, “Inson hayotining eng zarur komponentlari mulqot davomida shakllanadi, inson ongining genezisi monologga emas, aksincha dialogga asoslangan”[9]. Ya’ni, inson borlig‘i, uning ijtimoiylashuvi yuzma-yuz shaklda olib borilgan mulqotlar davomida shakllanadi. Teylorning ta’kidlashicha, “Shaxsning identikligi boshqa shaxslar tomonidan tan olinishi natijasida shakllanadi”[10].

Shu ma’noda, identiklik paradigmasi turli fan tarmoqlarining o‘rganish ob’ekti sifatida, fanlararo integrallashuvni namoyon qilmoqda.

Shunday ekan, ma’naviyat masalasi ham endilikda nafaqat milliy, balki global xarakter ham kasb etadi. Globallashuv jarayoni, H.Jo‘raev[11] qayd etganiday, hozircha faqat qandaydir mavhum ijobiy jihatlari bilangina emas, balki ko‘proq “hozirgi davr global muammolari”ni vujudga keltirgani bilan xarakterlidir. A.Muminov axborotlashuv jarayonlarining shiddat bilan shunday jadallashuvi tarixiy rivojlanish davomida avval mavjud bo‘lmagan yangi –shaxs va jamiyatga ta’sirko‘rsatadigan axborot-kommunikasiya resursiga ega bo‘lishi natijasida bir qator muammolar haqida o‘z tadqiqotlarini qayd etgan[12].

Ko‘pgina mutafakkirlar bu davrni, hatto, global inqiroz davri deb atamoqdalar. “XX asr inqirozni kuchli his etish bilan boshlangan edi va shu hissiyot bilan poyoniga yotdi”[13], deb yozadi rus faylasufi S.I.Dudnik. Shuningdek, M.I.Belyaev esa “Biz barcha jihatlaridan qaraganda juda murakkab davrda yashayapmiz. Bu planetada hayotni saqlab qolish uchun tafakkurimiz paradigmasini o‘zgartirish, inson hayotiy faoliyati maqsadini o‘zgartirish taqozo etilayotgan davrdir”[14]. Hozirgi davrning eng yangi fani sinergetika ham shu inqiroz holatini ifodalash uchun “global bifurkasiya nuqtasi”, degan maxsus yangi tushunchani kiritgani, “halokatlar nazariyasi”ni ishlab chiqqani bejiz emas”[15].

Global tahdid sifatida ko‘rilayotgan “foydasiz qatlam”ning paydo bo‘lishini “...avtomatlashtirishning tez sur’ati millionlab ish joylarining yo‘q bo‘lishiga, inson omili o‘rnini sun’iy intellekt egallashiga, natijada, jamiyatda zamonaviy bilimlarga ega bo‘lmagan avlodning vujudga kelishi xavfi bor”ligi bilan tavsiflanmoqda[16]. “Ma’lumotlar tengsizligi va koloniyalari”, “raqamli diktatura”, “falsafiy inqiroz” kabi tahdidlarning vujudga kelishini zamonaviy shaxs identikligining inqirozi sifatida ko‘rish mumkin. Inson hayot tarzining yo‘nalishlari, taqdiri va qismati algoritmlar vositasida hal qilinmoqda. “Biz (insonlarda, hatto, bunday borliqni anglash uchun falsafiy dunyoqarashning o‘zi yetarlicha emasligini, uni anglash uchun, ilmiy jihatdan aytganda, “falsafiy modellar” hali ham shakllanmayotganini endi tushunayapmiz”[17], deydi faylasuf Yu.Xarrari.

O‘zbekistonda “2020 yil – Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nomlandi. Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida o‘tgan yillar davomida amalga oshirilgan ishlar tanqidiy tahlil etilib, hayotimizning barcha jabhalarida joriy va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlar, amalga oshiriladigan islohotlarning muhim qirralari qamrab olingani, davlatimiz ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari bayon etilib, dolzarb qonunchilik tashabbuslari ilgari surilgani alohida ahamiyat kasb etdi. Yil nomlanishiga kelsak, buning zamirida chuqur ma’no va mazmun mavjud. Chunki, ilm-fan, ma’naviyat-ma’rifatga tikilgan sarmoya buyuk kelajak uchun kiritilgan investisiyadir. Ilm-ma’rifati rivojlanmagan davlat hech qachon to‘laqonli davlat bo‘la olmasligi bizga uzoq tarix hamda bugungi asrimizdagi yuksak taraqqiy etgan ilg‘or mamlakatlar tajribasidan ma’lum. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish va ilm-ma’rifatni rivojlantirish, asosan axborotlashtirish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. Yangi O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat parametrlarini joriy qilishda xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribasini o‘rganmay iloj yo‘q. Biz axborot texnologiyalarini o‘z hayotida yuksak darajada qo‘llayotgan mamlakatlar qatoriga kirishni reja qilgan ekanmiz, bu borada axborotlashtirishning milliy strategiyasini amalga oshirishimiz lozim.

Yuqoridagi global tahdid haqidagi tezislar misoli sifatida Jahon Iqtisodiy forumi mutaxassislarining “The Future of Jobs 2020” hisobotida ko‘rish mumkin. Xususan, biznes boshqarish va xizmatlar turlarini raqamlashtirish dunyoning 26 mamlakatida 85 million ish joyi yo‘qolishiga olib kelishiga, bu jarayon 2025 yilga qadar sodir bo‘lishi kutilayotgani haqida ogohlantirdi. “COVID-19 pandemiyasi mehnat bozorining kelajakda kutilayotgan islohotlarini tezlashtirdi”[18], deydi ushbu forumning boshqaruv direktori Sadi Zoxidi. Jahon Iqtisodiy forumi tadqiqotlari iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarning turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan 300 ta global kompaniyalar top-menejerlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga asoslangan bo‘lib, ushbu kompaniyalarda ish bilan ta’minlangan xodimlarning umumiy soni 8 million nafarni tashkil qiladi. Shuningdek, ushbu so‘rovnomada ishtirok etgan kompaniyalarning 43% menejerlari ish faoliyatiga yangi texnologiyalarni joriy etish natijasida ayrim sohalarni qisqartirishni rejalashtirilayotganini ta’kidlagan[19]. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, axborotlashgan jamiyatda shaxs identikligini tashkil qiluvchi kasbiy identiklikning shakllanishiga oid krizis holatlarni kuzatish mumkin. Bu kabi muammolarning yechimi sifatida “Kelajakda biz inson kapitaliga, xodimlarning malakasi, salohiyati va

kompetensiyasiga katta sarmoyalar kiritgan kompaniyalargina eng raqobatbardosh bo'lishini ko'ramiz"[20], deydi Sadi Zoxidi. Hemis faylasufi Karl Yaspers ta'kidlaganidek, "Inson endi o'zi yaratgan texnika ta'siridan xalos bo'la olmaydi. Ba texnologiya nafaqat cheksiz imkoniyatlarni, balki cheksiz xavf-xatarlarni ham tug'dirishi aniq"[21]. A.I. Rakitovning fikriga ko'ra esa "Hozirgi zamon sharoitida taraqqiyot faqat axborot taraqqiyoti ga olib boruvchi axborot inqilobi doirasidagi eng yangi axborot texnologiyalari asosida amalga oshiriladi"[22].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, *birinchidan*, axborotlashgan jamiyat borasidagi nazariy qarashlarning amalga oshirilgan, jamiyat hayotida amal qilayotgan jihatlarni mamlakatimizda ham qo'llashga doir vazifalarni o'rganishda o'z aksini topadi. Jamiyatni axborotlashtirish muammolarini hal etishda hozirgi davr va kelajakka teskari o'tmishning nazariy va amaliy tajribasini falsafiy jihatdan tahlil qilish ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarining muhim tarkibiy qismi ekani ma'lum bo'ladi.

Ikkinchidan, axborot konturllarini o'rganuvchi tamoyillarni tahlil qilishda axborotning davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim vositalardan biri ekani inobatga olinishi zarur. Chunonchi, ilm-fan inqilobining so'nggi yutuqlari ommaviy axborot kanallari bilan bir qatorda internet vositasidagi tor yo'nalishda, shaxsiy ma'lumot kanallarini ham rivojlantirib yubordi. Ammo bunday kanallar ommaviy axborot kanallaridan farqli ravishda ma'lum bir madaniy qoliplar hamda andozalardan anchayin yiroq bo'lib chiqdi.

Makonga oid funksional jihatdan yanada qudratliroq modellar an'anaviy hisob-kitobning sodda modeli o'rnini egallamoqda. "Ayni shu ma'noda, Tomas Kun tomonidan amalga oshirilgan ilmiy inqilobning mumtoz tahliliga moslashtirgan holda, «hozirgi davrdagi texnologik transformasiyalarning iqtisodiyot va jamiyat bilan o'zaro aloqasining mohiyatini anglashga ko'maklashuvchi «texnologik paradigmalari» tushunchasi ishlab chiqildi"[23].

#### ADABIYOTLAR

1. Gerbert Markuze. Odnomerniy chelovek. Issledovanie ideologii razvitiogo industrial'nogo obshestva. Perevod na russkiy yazyk: A. Yudin. - M.: 2003. // Elektрон-naya publika-siya: Sentr guma-nitar-nix texno-logiy. - 10.06.2012. URL: <https://gtmarket.ru/library/basis/5440>
2. Openkov M. Yu. Xakni budushee: vvedenie v filosofiyu obshestva znaniy. -M.: MOO BPP YuHESKO «Informasiya dlya vsekh», 2007. -S.65.
3. Honneth A. Reification: A New Look at an Old Idea (With Commentaries by Judith Butler, Raymond Geuss and Jonathan Lear). -Oxford: Oxford University Press, 2008. -R.75.
4. Geyer R. Alienation, sociology. International Encyclopedia of the Social and Behavioral Sciences. -London, 2001. - R.388-392.
5. Sullins J. Information Technology and Moral Values // The Stanford Encyclopedia of Philosophy (Winter 2018 Edition), Edward N. Zalta (ed.). 2018. URL: <https://plato.stanford.edu/archives/win2018/entries/it-moral-values>
6. Igrovaya zavisimost', eyo prichini, stadii, simptomi i lechenie// <http://securiy.mosmetod.ru/internet-zavisimosti/115-igrovaya-zavisimost-ejo-rishiny-stadii-simptom-i-leshenie> (Murojaat sanasi 16.05.2021)
7. Fushs Ch. Critical Theory of Communisation. -London: University of Westminster Press, 2016. - R. 66.
8. Skibitskiy M. M. Informatsionnaya epoxa i novaya ekonomika v trudax Manuelya Kastel'ya // Mir novoy ekonomiki. № 4. - M.: FUPRF, 2015. -S. 62-68.
9. Taylor Ch. The Ethics of Authenticity. -Cambridge: Harvard University Press; 1st edition, 1992. - R.77.
10. Taylor Ch. The Ethics of Authenticity. -Cambridge: Harvard University Press; 1st edition, 1992. - R.77.
11. Jo'raev H. Tarix falsafasining nazariy asoslari. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B.459.
12. Muminov, A. (2023). Nekotore aspekti perexoda k informatsionnomu obshestvu. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari / Aktualnye problemi sotsialno-gumanitarnix nauk / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/1), 55–59. <https://doi.org/10.47390/B1342V3S11Y2023N07>
13. Dudnik S. I. Paradigmi istoricheskogo mishleniya XX veka: ocherki po sovremennoy filosofii kul'turi. -SPb.: Sankt-Peterburgskoe filosofskoe obshestvo, 2001. - S.132.
14. Belyaev M.I. Kanoni Edinogo Znaniya. Mejdissiplinarniy sintez Beri i Znaniya. -M.: Lenand, 2013. - S. 120.
15. Qahhorova Sh. Global ma'naviyat - globallashuvning g'oyaviy asosi. -Toshkent: Tafakkur, 2009. -B.10-11.
16. <https://www.weforum.org/events/world-economist-forum-annual-meeting-2020/sessions/how-to-survive-the-21st-century>
17. Yuval N.H. How to Survive the 21st Century- Davos 2020. <https://nv.ua/orinion/resommends/budushshee-mira-yuval-no-y-harari-o-tom-shto-zhdet-sheloveshestvo-v-21-veke-roslednie-novosti-50066647.html>
18. <https://www.gazeta.ru/business/2020/10/21/13326649.shtml>
19. <https://arnar.kz/article/5f91a78a34afb235d6fae50>
20. <https://www.gazeta.ru/business/2020/10/21/13326649.shtml>
21. Yaspers K. Smisl i naznachenie istorii. Per. s nem. - M.: Polit - izdat, 1991. -S.139. (obshiy ob'yom 527)
22. Rakitov A.I. Filosofiya komp'yuternoy revolyusii. -M.: Polit - izdat, 1991. -S.8.
23. Kun T. Posle «Strukturi nauchnix revolyusii». Per. s angl. A.Hikiforova. -M.: OOO «Izdatel'stvo AST», 2014. - 448 s.